



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 13-may

II-12-62-14-220-K/25

Yangihayot tumani

Yangihayot tumani mahalliy budjetining 2025-yil birinchi chorak davomida budjet daromadlari bazasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy budjet hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 13-dekabrda PF-5283-son farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining "Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish, zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 29-iyundagi 445-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi hamda tuman DSI xodimlari tomonidan muntazam ravishda monitoringlar o'tkazilib, 2025-yil birinchi chorak mobaynida budjetga 257 ta holatda 408,9 mln. so'm qo'shimcha mablag'lar hisoblanib, 388,5 mln. so'm undirilgan.

Jumladan:

tegishli ruxsatnomalarni olmay faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlardan 257 ta holatda 408,9 mln. so'm budjet va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga qo'shimcha daromadlar zaxiralari aniqlangan.

Yuqoridagi holatlarni bartaraf etish hamda aniqlangan qo'shimcha daromad bazalarini soliq solish bazasiga kiritish va Davlat budjetiga umumdavlat soliqlaridan daromadlarni to'liq undirilishi bo'yicha Iqtisodiyot va moliya organi tomonidan vakolat doirasida tegishli choralar ko'rilib, belgilangan tartibda tuman hokimligi va tuman soliq inspeksiyasiga ma'lumot va bildirishnomalar taqdim etilgan.

Yuqorida keltirilgan hisobot va ma'lumotlarni o'rganib chiqib, xalq deputatlari Yangihayot tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Maxmudovning "Yangihayot tumani mahalliy budjetining 2025-yil birinchi chorak davomida budjet daromadlari bazasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari to'g'risida" taqdim etgan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangiheyot tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi S.Vafayev zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



INOAMOV XAYOT
ILYASOVICH